

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KONVERGENT KOMPOTENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Yusubjonova Gulchiroy Sarvarjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktaranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18974710>

Annotatsiya: Ushbu tezisda bo‘lajak o‘qituvchilarda konvergent kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda uni amalga oshirishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqilgan. Tadqiqotda bugungi zamonaviy ta‘lim tizimida fanlararo integratsiya, muammoli fikrlash va reflektiv faoliyatning ahamiyati ortib borayotgan sharoitda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqish haqida keng yoritiladi. Tezisda konvergent kompetentlik pedagogik, psixologik va metodik bilimlarni integratsiyalash, murakkab pedagogik vaziyatlarda innovatsion va asoslangan qarorlar qabul qilish hamda kasbiy faoliyatni tizimli tahlil qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Аннотация: В данной тезисной работе разработаны теоретико-методологические основы формирования конвергентной компетентности у будущих учителей, а также педагогическая модель, направленная на её реализацию. В исследовании широко освещается проблема вывода профессиональной подготовки учителя на новый уровень в условиях современной системы образования, где возрастает значение междисциплинарной интеграции, проблемного мышления и рефлексивной деятельности. В тезисе конвергентная компетентность трактуется как способность интегрировать педагогические, психологические и методические знания, принимать инновационные и обоснованные решения в сложных педагогических ситуациях, а также осуществлять системный анализ профессиональной деятельности.

Annotation: This thesis develops the theoretical and methodological foundations for the formation of convergent competence in future teachers and proposes a pedagogical model aimed at its implementation. The study extensively examines the need to elevate teacher professional training to a new level within the modern educational system, where the importance of interdisciplinary integration, problem-based thinking, and reflective practice is steadily increasing. In the thesis, convergent competence is interpreted as the ability to integrate pedagogical, psychological, and methodological knowledge, to make innovative and well-grounded decisions in complex pedagogical situations, and to conduct systematic analysis of professional activity.

Kalit so‘zlar: konvergent kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik model, fanlararo integratsiya, kasbiy kompetensiya, muammoli fikrlash, reflektiv faoliyat, innovatsion yondashuv, integrativ ta‘lim, pedagogik tayyorgarlik.

Ключевые слова: конвергентная компетентность, будущий учитель, педагогическая модель, междисциплинарная интеграция, профессиональная компетенция, проблемное мышление, рефлексивная деятельность, инновационный подход, интегративное обучение, педагогическая подготовка.

Keywords: convergent competence, future teacher, pedagogical model, interdisciplinary integration, professional competence, problem-based thinking, reflective practice, innovative approach, integrative education, teacher training.

Zamonaviy ta‘lim tizimining jadal rivojlanishi hamda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar bo‘lajak o‘qituvchilardan ham kasbiy tayyorgarligiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Jumladan, fanlararo bilimlarni uyg‘unlashtira olish, murakkab pedagogik vaziyatlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarda konvergent kompetentlikni shakllantirish ta‘lim jarayonini takomillashtirishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Konvergent kompetentlik turli fanlar, metodlar va pedagogik texnologiyalarni yagona bir maqsad sari yo‘naltirilgan holda integratsiyalash, muammoli vaziyatlarda eng maqbul va asoslangan qarorlar qabul qilish hamda reflektiv tahlil asosida o‘z kasbiy faoliyatini takomillashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetentlikning shakllanishi tizimli yondashuvga asoslangan, aniq maqsad, mazmun, metod, vosita va natija komponentlarini o‘z ichiga olgan pedagogik model orqali maqsadga muvofiq ta‘minlanadi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Shu sababdan, mazkur bobda bo‘lajak o‘qituvchilarda konvergent kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik modelning nazariy-metodologik asoslari, uning tarkibiy tuzilmasi hamda oliy ta‘lim jarayonida amaliyotga joriy qilish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Yuqorida keltirilgan model integrativ yondashuv, kompetensiya asosidagi ta‘lim, reflektiv faoliyat va innovatsion pedagogik texnologiyalar uyg‘unligiga tayanib ishlab chiqilgan bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy fikrlashini, fanlararo integratsiya ko‘nikmalarini va muammoli vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish salohiyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida pedagogik modelning ilmiy-nazariy metodikasini o‘rganib chiqamiz.

Pedagogik modelning nazariy asoslari: maqsad, mazmun, metod, vosita, natijalarini keng yoritib o‘tsak. Bo‘lajak o‘qituvchilarning konvergent kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli - bu o‘quv jarayonni tizimli, mantiqiy va bosqichma-bosqich tashkil etishning nazariy-amaliy sxemasidir. V.P.Bespalko[1] pedagogik modelni ta‘lim jarayonidagi oldindan rejalashtirilgan, natija uchun yo‘nalgan va qayta tiklanadigan tizim sifatida izohlaydi. U o‘zining ilmiy izlanishlarida, ta‘limda integratsiyalashgan, fanlararo, ijodiy va reflektiv yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda, o‘qituvchi shaxsini kompleks rivojlantirishga qaratadi.

Modelning maqsadi haqida gapiradigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarda konvergent fikrlash asosida muammoli vaziyatlarda mustaqil, innovatsion va tizimli qaror qabul qila olish kompetentligini shakllantirishdir. Bu maqsadni J.Dewey [2]ning muammoli fikrlash nazariyasida, D.Kolb[3] faoliyat orqali o‘rganish nazariyasida, A.N.Lyontyev [4] faoliyatli yondashuv nazariyasi hamda P.Ya.Galperin[5] bosqichli o‘rganish nazariyalarining integratsiyasi orqali kelib chiqqan..

Model mazmuni o‘qituvchilik faoliyatining asosiy komponentlariga tayangan holda shakllanadi. Aniqroq qilib tushuntiradigan bo‘lsak, pedagogik-psixologik bilimlar majmuasi; fanlararo integratsiyani amalga oshirish ko‘nikmalari; o‘quv jarayonini loyihalash, tahlil qilish va refleksiya yuritish malakalari[]; ijodiy va tanqidiy fikrlash madaniyati kabi bir nechta komponentlarga bo‘linib, bu bo‘limlar bir qancha olimlar tomonida o‘rganilgan.

Mazmun asosida esa, bilim–ko‘nikma–malaka–qadriyat zanjiri yotadi, bu zanjir konvergent kompetentlikni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Modelda qo‘llaniladigan asosiy metodlar muammoli o‘qitish – talabalarda fikrlash faoliyatini rag‘batlantirish; integrativ o‘qitish – fanlararo bog‘liqlikni ta‘minlash; Keys-study (keys tahlil) – real hayotiy pedagogik vaziyatlar asosida qaror qabul qilishni o‘rgatishlar kiradi;

Tadqiqotga yo‘naltirilgan ta‘lim o‘qituvchini izlanishga undash; reflektiv metodlar, ya‘ni o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga yo‘naltiriladi.

Pedagogik modelni amalga oshirishda raqamli ta‘lim platformalari; interfaol o‘qitish texnologiyalari (masalan: debat, loyiha, aqliy hujum); diagnostik testlar va refleksiya kundaliklari; fanlararo ta‘lim modullari va amaliy loyihalar kabi vositalardan foydalaniladi.

Model natijasida bo‘lajak o‘qituvchida fanlararo bilimlarni jamlash va ularni amalda qo‘llay olish; muammoli pedagogik vaziyatlarga tizimli yondashish; ijodiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi; konvergent kompetentlikning barcha tarkibiy qismlarining shakllanishi kabi o‘zgarishlar kuzatiladi;

Modelning tarkibiy tuzilmasi haqida gaplashamiz(motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv komponentlar). Modelning samaradorligi uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik bilan belgilanadi. Har bir kompenet konvergent kompetentlikning muayyan jihatini ifodalaydi.

Motivatsion bosqich bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘qituvchilik kasbiga, yangilikka, ijodkorlikka va integratsiyaga nisbatan ichki qiziqish va ijtimoiy mas‘uliyat hissini shakllantiradi.Asosiy yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin: ta‘limda konvergent fikrlashning ahamiyatini anglash; o‘zini kasbiy jihatdan rivojlantirishga intilish; qadriyatli munosabat ya‘ni o‘qituvchilikni ijtimoiy vazifa sifatida qabul qilish.

Kognitiv komponent qismida o‘qituvchining nazariy bilim bazasi shakllanadi: pedagogika, psixologiya, metodika, axborot texnologiyalari, fanlararo bog‘liqlik nazariyasi.Asosiy g‘oyasi o‘qituvchining integrativ bilim tizimini shakllantirishdir. Kognitiv bilimlar amaliyotga o‘tadi. Bu bosqichda o‘qituvchi quyidagilarga alohida ahamiyat qaratadi: o‘quv mashg‘ulotlarini integrativ tarzda loyihalashni; innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashni; jamoaviy va individual tadqiqot ishlarini olib borishni o‘rganadi. Natijada konvergent faoliyat tajribasi shakllanadi.

Refleksiv komponent o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va o‘zini o‘zgartirish qobiliyatini rivojlantiradi.Bu komponentlik vazifalari :o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash; kasbiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish; o‘z o‘qituvchilik amaliyotini ilmiy asosda takomillashtirish.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Barcha komponent o‘zaro bog‘liq bo‘lib, konvergent kompetentlik tizimini yagona yaxlitlikda shakllantiradi: motivatsiya – harakatga turtki beradi, kognitiv baza – yo‘nalish beradi, faoliyat – tajriba yaratadi, refleksiya esa bu jarayonni tahlil qilib, rivojlantirishni ta‘minlaydi.

Modelni amalga oshirish bosqichlari va mexanizmlari haqida o‘rgansak.

Modelni amalda joriy etish uch bosqichli sikl asosida tashkil etiladi: tayyorlov, asosiy hamda yakuniy bosqichlardan iborat.

Dastlabki bosqich tayyorlov -diagnostika bosqichida bo‘lajak o‘qituvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma va motivatsiya darajasi aniqlanadi; konvergent kompetentlikning boshlang‘ich ko‘rsatkichlari baholanadi, baholanish anketa, test, kuzatish, suhbat metodlari orqali bajarilishi mumkin; Individual o‘shish yo‘nalishlari belgilab olinadi.

Keyingi bosqich asosiy (transformatsion) bosqich bosqich bo‘lib, fanlararo integratsiyaga asoslangan o‘quv modullari joriy qilinadi; interfaol metodlar, loyiha asosidagi o‘qitish, keys tahlil va tadqiqot ishlari amalga oshiriladi; talabalarda konvergent fikrlash, jamoaviy qaror qabul qilish va refleksiya ko‘nikmalari shakllanadi. Bu bosqich modelning yadrosi hisoblanadi. Aynan shu jarayonda konvergent kompetentlikning amaliy tajribasi shakllanadi.

So‘nggi bosqich yakuniy (refleksiya va baholash) bosqichi bo‘lib, bu baholash bosqichida talabalar o‘zining kasbiy o‘shish dinamikasini tahlil qiladi; baholash indikatorlari (bilimning chuqurligi, integratsiya darajasi, ijodiy yondashuv, refleksiya) asosida natijalar aniqlanadi; Individual rivojlanish xaritalari tuziladi.

Model quyidagi mexanizmlar asosida amalga oshiriladi:


- ta‘lim muassasasi darajasida integrativ o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;
- o‘qituvchilar uchun metodik seminarlar va ilmiy laboratoriyalar tashkil etish;
- raqamli ta‘lim muhiti orqali fanlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- talabalarning mustaqil va jamoaviy tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish.

Bugungi ta‘lim jarayonida konvergent kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosidagi pedagogik tamoyillar, shart-sharoit va mexanizmlarlar haqida to‘xtalsak.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida konvergent kompetentlikni shakllantirish integrativ yondashuvning ustuvorligini taqozo etadi. Chunki konvergent fikrlash — bu turli manbalar, fanlararo bilimlar va amaliy tajribalarni yagona yechimga yo‘naltirilgan holda uyg‘unlashtirish jarayonidir. Ushbu kompetentlikni rivojlantirishda integrativ-pedagogik modelning tamoyillari, metodlari, shart-sharoit va mexanizmlar tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi muhimdir.

Integrativ o‘qitish tamoyillarining asosiy pedagogic tamoyillarini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak.

Integrativ o‘qitishda quyidagi asosiy pedagogic tamoyillar konvergent kompetentlikni shakllantirishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi:



1.2.rasm.Konvergent kompetentlik rivojlantiruvchi pedagogik tamoyillar

Uzviylik tamoyili ta‘lim mazmunining mantiqiy bog‘liqligi, fanlararo bilimlarning bir-birini to‘ldirishi va o‘quv jarayonida uzluksiz rivojlanib borishi konvergent fikrlashning shakllanishi uchun

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

zamin yaratadi. Uzviylik o‘quvchi tafakkurida bilimlar o‘rtasida bog‘lanishlar hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.

Tizimlilik tamoyili integrativ yondashuv barcha ta‘lim elementlarning maqsad, mazmun, metod, faoliyat, baholashning o‘zaro uyg‘un tizimda amal qilishini talab etadi. Tizimli modellashtirilgan ta‘lim jarayoni konvergent kompetentlikning bosqichma-bosqich shakllanishini ta‘minlaydi.

Muvofiqlik tamoyili o‘quv faoliyatining mazmuni o‘quvchilarning yosh, psixologik va intellektual imkoniyatlariga, shuningdek, jamiyat ehtiyojlari va kasbiy kompetensiyalar talablariga mos bo‘lishi zarur. Muvofiqlik tamoyili konvergent fikrlashni real ehtiyojlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Refleksivlik tamoyili o‘quv jarayonida refleksiv tahlilning mavjudligi o‘quvchi o‘z faoliyatini baholashi, strategiyalarni qayta ko‘rib chiqishi va yanada samarali yechimlar izlashiga xizmat qiladi. Refleksivlik konvergent kompetentlikning tarkibiy qismi bo‘lib, fikrlash jarayonining ongli ravishda boshqarilishiga asos bo‘ladi.

Pedagogik metodni amalga oshirishdagi samarali metodlar va ta‘lim texnologiyalarilari haqida gaplarsak. Konvergent kompetentlikning shakllanishi o‘quv jarayonida innovatsion, interaktiv va integrativ metodlardan foydalanishni talab etadi. Ushbu jarayonda quyidagi metodlar eng samarali vositalar sifatida namoyon bo‘ladi:


Muammoli o‘qitish texnologiyasida muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan ta‘lim o‘quvchini tahlil qilish, farazlar ilgari surish, dalillash va aniq yechim topishga majbur etadi. Bu jarayon konvergent fikrlashni kuchaytiradi.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning)da loyihalar integrativ mazmunga ega bo‘lib, unda o‘quvchi turli fanlar, texnologiyalar va real hayotiy vazifalarni birlashtirgan holda amaliy natijaga erishadi. Bu esa konvergent kompetentlikning amaliy ko‘rinishda shakllanishiga yordam beradi.

STEAM yondashuvida Science, Technology, Engineering, Art va Mathematics yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘langan holda qo‘llash o‘quvchilar tafakkurida kompleks tahlil va sintezni rivojlantiradi. STEAM muhitida o‘quvchi integrativ bilimlardan foydalanib, yagona innovatsion yechim yaratishga intiladi.

Hamkorlikda ta‘lim (Collaborative learning)da jamoada ishlash, qarorlar qabul qilish, rollarni taqsimlash va bir-birining fikrini eshitish orqali o‘quvchilar o‘zining konvergent fikrlash malakasini chuqurlashtiradi. Hamkorlik kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar bilan birga konvergent kompetentlikning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘qituvchining ta‘lim tizimidagi roli va faoliyat yo‘nalishlari haqida to‘xtilib o‘tsak, Integrativ ta‘limda o‘qituvchining faoliyati ko‘proq fasilitatorlik, yo‘naltiruvchilik va tashkilotchilik vazifalariga ega bo‘ladi. O‘qituvchining roli quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:



1.3.rasm. O‘qituvchining ta‘lim tizimidagi o‘rni.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Integrativ ta’lim mazmunini loyihalashda o‘qituvchi o‘quv dasturi, mavzular va topshiriqlarni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirishi, konvergent kompetentlikni rivojlantiruvchi vazifalarni tanlashi zarur.

O‘quv jarayonini boshqarish va muhit yaratishda kreativ, ochiq, interaktiv va hamkorlikka asoslangan o‘quv muhiti konvergent fikrlash uchun qulay sharoit yaratadi. O‘qituvchi muhitda motivatsiya, qo‘llab-quvvatlash va refleksiv tahlil elementlarini uyg‘unlashtiradi.

O‘quvchilar faoliyatini monitoring qilish va baholashda Konvergent kompetentlikni baholash jarayonida o‘qituvchi jarayoniy yondashuv, portfolio, loyiha natijalari, muammoli vaziyatlar yechimi kabi mezonlar asosida o‘quvchi muvaffaqiyatini aniqlaydi.


Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash esa raqamli texnologiyalar, simulyatsiya platformalari, multimodal resurslar, analitik vositalardan foydalanish konvergent kompetentlikni shakllantirishning zamonaviy mexanizmlaridan biridir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning konvergent kompetentligini rivojlantirish metodologiyasining nazariy-amaliy asoslari bilan tanishib o‘tsak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda konvergent kompetentlikni shakllantirish zamonaviy pedagogik paradigmalarning markazida turadi. Chunki ta’lim tizimiga kirib kelayotgan yangi avlod o‘qituvchilari murakkab ta’lim muammolarini integrativ, tahliliy va innovatsion yondashuv asosida hal qilishga qodir bo‘lishi lozim. Shu bois mazkur kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasi nazariy asoslar, ilmiy model, amaliy mexanizmlar, innovatsion yondashuvlar va baholash tizimi bilan yaxlit metodik platformani tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy modeli va amaliy qo‘llanish imkoniyatlari

Konvergent kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasining ilmiy-nazariy modeli integrativ pedagogika, konstruktivizm, kognitiv psixologiya, tizimli yondashuv hamda kompetensiya asosidagi ta’lim konsepsiyalarining o‘zaro uyg‘unligiga tayanadi. Modelning tarkibiy tuzilishi quyidagi elementlardan iborat:



1.4. rasm. Pedagogik modelning tarkibiy qismlari.

Maqsadli blokda bo‘lajak o‘qituvchilarda ilmiy-tahliliy, problem yechish, fanlararo integratsiya va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Mazmuniy blok pedagogika, psixologiya, didaktika, IT texnologiyalari, metodika va amaliyot fanlari doirasida integratsiyalashgan bilimlar majmuasini qamrab oladi.

Faoliyat blok muammoli topshiriqlar, STEAM loyihalari, modellashtirish, tahliliy mashg‘ulotlar, pedagogik kvestlar kabi integrativ-amaliy faoliyatlar bilan boyitilgan.

Natijaviy blok esa konvergent kompetentlikning tarkibiy ko‘rsatkichlari (tahliliy fikrlash, integratsion yondashuv, optimal yechim ishlab chiqish, refleksiv faoliyat) orqali baholashga yo‘naltirilgan.

Mazkur model oliy ta’lim jarayonida quyidagi amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini yaratadi: integrativ o‘quv kurslari va kompetensiya asosidagi modul dasturlarni yaratish; bo‘lajak o‘qituvchilar

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

uchun konvergent vazifalar bankini ishlab chiqish; amaliy mashg‘ulotlarda STEAM va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalarini integratsiyalash; kasbiy amaliyot jarayonida tahliliy-refleksiv portfolioni joriy etish.

Metodologiyaning innovatsion xususiyatlari va ta‘lim sifatiga ta‘sirini o‘rganadigan bo‘lsak, innovatsion xususiyatlar ham o‘z holida bir nechta turlarga bo‘linadi. Konvergent kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra innovatsion bo‘lib, u an‘anaviy ta‘lim modeliga nisbatan bir qator ustunliklarni beradi. Uning innovatsion xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Fanlararo integratsiya asosida o‘qitish turli bilim sohaslarining uyg‘unlashuvi orqali murakkab pedagogik vazifalarni hal qilish.

Raqamli texnologiyalarga tayanish simulyatsiyalar, raqamli laboratoriyalar, online platformalar orqali o‘quvchi faoliyatining samaradorligini oshirish.

Muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan ta‘lim modeli o‘quv jarayonini tayyor bilimni o‘zlashtirishdan ko‘ra yechim yaratish faoliyatiga yo‘naltirish.

Metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘z fikrlash faoliyatini nazorat qilish, refleksiya, strategiyalarni qayta ko‘rib chiqish imkonini beruvchi mexanizmlar.

Mazkur innovatsion yondashuvlar ta‘lim sifatiga quyidagi ta‘sirlarni ko‘rsatadi: o‘qituvchi tayyorlash jarayonining kasbiy-mantiqiy asoslari mustahkamlanadi; talabalarda tahliliy, integrativ va kreativ fikrlash uyg‘onadi; ta‘lim jarayoni amaliyotga yaqinlashtiriladi; raqobatbardosh, zamonaviy ta‘lim talablariga mos o‘qituvchi modeli shakllanadi.

Metodologik yondashuv asosida kutiladigan natijalar va ularning baholash mezonlarini ko‘rib chiqsak.


Metodologiya asosida amalga oshirilgan o‘quv faoliyati bo‘lajak o‘qituvchilarda konvergent kompetentlikning quyidagi ijobiy natijalarini keltirib chiqarishi kutiladi:

1. Bilim sohasida: fanlararo bog‘lanishlarni tahlil qila olish, muammolarni tizimli yondashuv asosida o‘rganish, ilmiy-nazariy asoslarni umumlashtirish ko‘nikmalarining shakllanishi.

2. Faoliyat sohasida: optimal yechimlarni ishlab chiqish, loyiha faoliyatini tashkil etish, integrativ metodlardan o‘quv jarayonida mustaqil foydalanish.

3. Shaxsiy rivojlanish sohasida: refleksiv ko‘nikmalar, tashabbuskorlik va mas‘uliyat, professional o‘shiga tayyorlik.

Pedagogik modeldan kutilayotgan natijalarni baholash mezonlari:



1.5. rasm. Baholash mezonlari

Tahliliy ko‘rsatkichlarda muammo tahlili, dalillash, mantiqiy ketma-ketlik ko‘rib chiqiladi.

Amaliy ko‘rsatkichlarda loyiha sifati, yechimning samaradorligi, innovatsionlik tavsiflanadi

Integrativ ko‘rsatkichlarda turli fan bilimlarini uyg‘unlashtirish darajasi o‘rganiladi

Refleksiv ko‘rsatkichlarda portfoliodagi o‘zlikni baholash, refleksiv hisobotlar ko‘rib chiqiladi

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Kompetensiya ko‘rsatkichlari mustaqillik, tashabbuskorlik, yechim ishlab chiqish tezligi va aniqligi o‘rganiladi.

Xulosa. Ushbu tezisda bo‘lajak o‘qituvchilarda konvergent kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, uning mazmuniy tuzilishi, pedagogik tamoyillari, metodlar tizimi hamda integrativ yondashuvning o‘quv jarayoniga ta‘sir mexanizmlari keng ko‘lamda ilmiy tahlil qilindi. Olib borilgan nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konvergent kompetentlik zamonaviy ta‘limning strategik maqsadlaridan biri bo‘lib, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, konvergent kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan integrativ-metodik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini sifat jihatdan oshirish, ta‘lim jarayonida mustaqil fikrlash, kreativ va analitik yondashuvni kuchaytirish hamda murakkab pedagogik vaziyatlarni samarali hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.P.Bespalko., Yu.G.Tatur. Systematic and methodological support for the educational process for training specialists. Moscow: High school. 1989-143p
2. J. Dewey. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. New York: Macmillan. 1916
3. J. Dewey. Experience and Education. New York: Macmillan. 1938
4. +6-D.A Kolb. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. 1984.
5. A.N.Leontyev. Activity, Consciousness, and Personality. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. 1977
6. P.Y.Galperin. Stages in the Formation of Mental Actions. Soviet Psychology. 1967.5(4), 2–17.
7. Galperin, P. Y. The Psychology of Human Learning. New York: Academic Press. 1967
8. L.S.Vygotskiy. Jamiyat va tafakkur. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi. Moskva. Pedagogika. 1978-336 b
9. J.S.Bruner. The process of education. Cambridge: MA: Harvard university Press. 1986-201b